



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 143 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	



KO'P KVARTIRALI UYLARNI BOSHQARUV ORGANLARI TOMONIDAN AHOLIGA SIFATLI XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Umarov Begzodbek Jaloldinovich

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti bosh mutaxassisi

E-mail: umarovbekzodbek61@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'p kvartirali uylarga xizmat ko'rsatuvchi boshqaruv organlari va uy-joy mulkdorlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning qonuniy asoslari, boshqaruv organlari tomonidan ko'p kvartirali uylarni saqlash bo'yicha qanday xarajatlar amalga oshirilishi hamda uyning umumiy joylarini saqlashdagi ishtiroki tahlil qilingan. Ko'p kvartirali uyni me'yor darajasida saqlab turish uchun umumiy mol-mulkni saqlash bo'yicha xarajatlarning tannaxmini optimallashtirish hamda byudjet yoki kredit mablag'laridan moliyalashtirish ulushini kamaytirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ko'p kvartirali uy, umumiy mol-mulk, ko'p kvartirali uyni boshqarish, boshqaruv organi, joylar mulkdorlari, majburiy badallar yoki to'lovlar, ko'p kvartirali uylarni saqlash, umumiy yig'ilish, smeta.

Abstract: This article examines the legal basis of financial relations between management bodies servicing apartment buildings and homeowners, the costs incurred by management bodies for the maintenance of apartment buildings, and their participation in the maintenance of common areas of the house. Recommendations have been developed to optimize the cost of maintaining common property and reduce the share of financing from the budget or credit funds in order to maintain an apartment building at a standard level.

Key words: apartment building, common property, management of an apartment building, management body, owners of premises, mandatory contributions or payments, maintenance of apartment buildings, general meeting, estimate.

Аннотация: В статье рассматриваются правовые основы финансовых отношений между органами управления, обслуживающими многоквартирные дома, и собственниками помещений, расходы органов управления на содержание многоквартирных домов, а также их участие в содержании мест общего пользования дома. Разработаны рекомендации по оптимизации расходов на содержание общего имущества и снижению доли финансирования из бюджета или кредитных средств в целях поддержания многоквартирного дома на нормативном уровне.

Ключевые слова: многоквартирный дом, общее имущество, управление многоквартирным домом, орган управления, собственники помещений, обязательные взносы или платежи, содержание многоквартирных домов, общее собрание, смета.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, jahon aholisining 60 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ko'p qavatli uylarda yashovchi insonlar soni 3 milliard nafarga yetishi mumkinligi aniqlangan (United Nations, World Urbanization Prospects, <https://population.un.org/wup>).

Shahar aholisi orasida ko'p qavatli uylarda yashovchilarning ulushi katta bo'lib, ayniqsa quyidagi davlatlar tajribasi e'tiborga loyiqdir:

- Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya;
- Yevropa mamlakatlari;
- Rossiya va MDH davlatlari;
- AQSH, Braziliya va Lotin Amerikasi davlatlaridagi yirik shaharlarda.

O'zbekistonda esa 1,5 milliondan ortiq fuqaro ko'p kvartirali uylarda yashaydi. Mazkur ko'p qavatli uylar dunyo bo'yicha uy-joy fondining muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi.



Bu holat ko'p qavatli uylardagi uy-joy fondini samarali boshqarish, undan oqilona foydalanish, uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish, uni asrab-avaylash hamda aholiga xavfsiz yashash sharoitlarini yaratish bugungi kunda dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda respublikada 1 million 400 mingga yaqin xonadondan iborat 42 152 ta ko'p kvartirali uy mavjud bo'lib, ularga 1 003 ta boshqaruvchi tashkilot hamda 233 ta uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmat ko'rsatmoqda.

Ushbu uylardan:

- 39 454 tasi boshqaruv tashkilotlari tomonidan,
- 925 tasi shirkatlar tomonidan,
- 654 tasi esa bevosita uy-joy mulkdorlari tomonidan boshqariladi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi 581-sonli¹ "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, umumiy mulk quyidagilardan iborat:

- tayanch va to'siq konstruksiyalar,
- kvartiralar oralig'idagi ihotalangan (o'rama) pillapoyalar,
- zinapoyalar, liftlar va lift shaxtalari,
- boshqa shaxtalar, dahlizlar, texnik qavatlar, yerto'lalar, cherdaklar va tomilar,
- uy ichidagi muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalari,
- joylarning tashqarisida yoki ichida joylashgan, bir nechta xonadonlarga xizmat ko'rsatadigan mexanik, elektr va sanitariya-texnika uskunalari va qurilmalari.

Ushbu ko'p kvartirali uylarda yashovchi mulkdorlar umumiy mol-mulkni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni birgalikda zimmasiga olishi shart. Bu xarajatlar quyidagilardan iborat:

- umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish, uni joriy va kapital ta'mirlash,
- shuningdek, uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish bilan bog'liq ishlar.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi 581-sonli Qonuni va Uy-joy kodeksining 132-moddasiga muvofiq, ko'p kvartirali uydagi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar mulkdori:

- o'ziga tegishli mulkni tegishli texnik va sanitariya holatida saqlashi,
- ko'p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkni va unga tutash obodonlashtirish elementlari mavjud bo'lgan yer uchastkasini saqlash bo'yicha xarajatlarni zimmasiga olishi lozim.

Bunday xarajatlar odatda majburiy badallar shaklida amalga oshiriladi, va ular quyidagilarni qoplashga xizmat qiladi:

- umumiy mol-mulkni boshqarish,
- unga xizmat ko'rsatish,
- joriy va kapital ta'mirlash,
- uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish va saqlash xarajatlari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimining samaradorligini ta'minlash va aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil etish masalasi urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi sharoitida dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, jahon aholisining 60 foizdan ortig'i shaharlarda yashaydi va ularning katta qismi aynan ko'p qavatli uylarda istiqomat qilmoqda [8]. Bu esa, ko'p kvartirali uy-joy fondini boshqarishda ishonchli institutlar va huquqiy mexanizmlarni shakllantirishni taqozo etadi.

Mazkur sohaga oid ilmiy-nazariy qarashlar «Kommunal infratuzilma obyektlari menejmenti» nomli darslikda (Rahimov Q.E., 2022-yil) keng yoritilgan bo'lib, unda kommunal infratuzilma obyektlarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari, xususan ko'p kvartirali uylarda boshqaruv tizimining turlari, ularning afzalliklari va zaif jihatlari ilmiy asosda tahlil qilingan [1].

Shuningdek, Ye.I. Bogomolniiy tahririda chop etilgan "Оперативное управление жилищно-коммунальным хозяйством" nomli o'quv qo'llanmada Rossiya tajribasi asosida ko'p kvartirali uylar boshqaruvining operativ tamoyillari, byudjetlashtirish, xususiy sektorni jalb etish va muhandislik kommunikatsiyalarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha ilg'or tajribalar yoritilgan bo'lib, bu tajriba O'zbekiston sharoitida qo'llash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda [2].

O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi hamda 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-581-sonli Qonuni ko'p kvartirali uylarda umumiy mol-mulkni boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish va saqlash, ta'mirlash ishlari, uyga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bilan bog'liq moliyaviy-huquqiy munosabatlarning tartibga solinishini belgilaydi [3][4].

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.11.2019 yildagi O'RQ-581-son <https://lex.uz/docs/-4586282>



Shuningdek, 2021-yil 19-iyundagi PQ–5152-sonli Prezident qarori asosida ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimida raqamlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Mening uyim" billing tizimi orqali mulkdorlar, boshqaruvchi tashkilotlar va nazorat organlari o'rtasidagi hisob-kitoblar shaffolashtirilgan [5].

Bundan tashqari, www.stat.uz va www.population.un.org kabi rasmiy statistik portallar orqali aholining demografik tarkibi, shaharlardagi yashash darajasi hamda uy-joy fondining dinamikasi bo'yicha zamonaviy ma'lumotlar olish imkoniyati mavjud bo'lib, tadqiqotda ushbu ma'lumotlar asosida ko'p kvartirali uylar soni va ularni saqlash xarajatlari bo'yicha tahlillar o'tkazilgan [6][7][8].

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid mavjud adabiyotlar va normativ hujjatlar ko'p kvartirali uylarni boshqarishda institutsional, moliyaviy, tashkiliy va raqamli mexanizmlarni qo'llashning nazariy va amaliy asoslarini keng yoritib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, xususan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi O'RQ–581-sonli Qonuni hamda Uy-joy kodeksining 132-moddasi asosida ko'p kvartirali uylarni boshqarishning huquqiy mexanizmlari o'rganildi.

Shuningdek, 2017–2021-yillar davomida ajratilgan va qaytarilgan kredit mablag'lari bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, boshqaruv tizimining hududiy samaradorligi baholandi.

Tadqiqotda taqqoslama, guruhlash va empirik tahlil usullari qo'llanildi. "Mening uyim" billing tizimi kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha institutsional yondashuv asosida amaliyotlar o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu bilan birga, ko'p kvartirali uylarni me'yor darajasida saqlashni ta'minlash maqsadida davlat tomonidan imtiyozli kredit mablag'larini ajratish yo'nalishida bir qator tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda (1-jadval).

1-jadval. 2017–2021-yillar davomida ko'p kvartirali uylarni joriy va mukammal ta'mirlash bo'yicha ajratilgan kredit mablag'lari to'g'risida ma'lumot (mln so'mda)

T/r	Hududlar nomi	2017–2021-yillarda ajratilgan kreditlar miqdori	Qaytarilgan kreditlar miqdori	Qoldiq mablag'
Respublika bo'yicha		1 631 736,2	360 617,6	1 316 321,4
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	24 355	7 898	16 788
2	Andijon viloyati	133 328	25 883	107 444
3	Buxoro viloyati	41 978	16 112	25 866
4	Jizzax viloyati	133 351	14 765	119 028
5	Qashqadaryo viloyati	36 655	10 541	26 592
6	Navoiy viloyati	9 849	4 217	5 576
7	Namangan viloyati	38 922	12 316	26 607
8	Samarqand viloyati	106 692	27 418	80 006
9	Surxondaryo viloyati	88 261	11 261	80 724
10	Sirdaryo viloyati	75 514	4 607	70 907
11	Toshkent viloyati	186 939	53 675	145 974
12	Farg'ona viloyati	84 766	26 835	75 803
13	Xorazm viloyati	59 502	11 751	56 721
14	Toshkent shahri	611 625	133 339	478 286



Jumladan, 2017–2021-yillar davomida respublikamizdagi uy-joy mulkdorlari shirkatlariga ko'p kvartirali uylarni joriy va mukammal ta'mirlash uchun jami 1 631 736 mln so'm kredit mablag'lari ajratilgan.

Kredit ta'minoti mavjud bo'lmagan uy-joy mulkdorlari shirkatlari uchun esa, sug'urta kompaniyalari tomonidan "kredit qaytmaslik xatarini sug'urtalash" sug'urta polisi orqali kredit mablag'lari ajratilishi ta'minlangan.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilgan. Shu asosda, ko'p kvartirali uylarni boshqarish sohasida qonunchilik bazasi takomillashtirilib, boshqaruvning uch xil turi joriy etildi. Natijada, boshqaruv tizimiga xususiy sektorning kirib kelishi uchun huquqiy asos yaratildi.

Qonunchilikka muvofiq, ko'p kvartirali uyni boshqarish:

- bevosita joylarning mulkdorlari tomonidan;
- yuridik shaxs bo'lgan boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma asosida;
- jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) bo'lgan boshqaruvchi tomonidan;
- bir yoki bir nechta zich joylashgan ko'p kvartirali uylarda yashovchilarni birlashtiruvchi uy-joy mulkdorlari shirkatlari — notijorat tashkilotlari orqali amalga oshirilishi belgilangan (O'RQ-581, 8-modda²).

Shuningdek, quyidagi qo'shimcha yengilliklar belgilangan:

- boshqaruv tashkilotlari ko'p kvartirali uyni boshqarish bilan bog'liq barcha soliqlardan ozod etildi;
- moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun imtiyozli kredit mablag'lari taklif etildi;
- qurilishi tugallangan va foydalanishga topshirilgan uylarda boshqaruv dastlabki ikki yil davomida quruvchi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi;
- boshqaruv usuli shirkatdan boshqaruvchi tashkilotga o'tgan holatlarda, jalb qilingan kreditlar muddati mahalliy hokimliklar kafilligi asosida uch yilga uzaytirildi;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj mulkdorlarning qarzdorliklarini qoplash uchun mahalliy byudjetdan subsidiya ajratish hamda boshqa imtiyozlar joriy etildi.

Natijada, boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan uylarni saqlash, ta'mirlash, obodonlashtirish borasida qator amaliy ishlar olib borildi.

Shu bilan birga, sohani raqamlashtirish yo'nalishida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ–5152-son qarori³ga muvofiq, "Mening uyim" billing tizimi joriy etilib, unda:

- ko'p kvartirali uylarga xizmat ko'rsatish jarayoni;
- mulkdorlarning jismoniy identifikatsiya raqami (JShShIR);
- ularning mol-mulkiga tegishli kadastr raqami orqali hisob-kitoblar yuritilmoqda.

Hozirgi kunda respublikadagi 41 549 ta ko'p kvartirali uy va ulardagi 1 407 298 ta xonadon billing tizimiga kiritilgan bo'lib, majburiy badallar hisob-kitobi avtomatlashtirilgan.

Bundan tashqari:

- boshqaruv organlarining reyestrini yuritish, ularga ko'p kvartirali uylarni birlashtirish amaliyoti Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza topshirish shaklida joriy etildi (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 853-son qarori⁴ asosida);
- boshqaruv organlarining elektron reyestri — <https://reestr.kommunal.uz/> platformasi orqali ularning boshqaruvdagi uylarga oid ma'lumotlar ochiq shaklda yuritilmoqda;
- boshqaruv organlari va mulkdorlar shaxsiy kabinet orqali noqonuniy qurilmalar haqida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi nazorati inspeksiyasiga xabar berish, shuningdek xabar holati va natijalarini onlayn kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi;

"Yagona mijoz" tamoyili asosida billing tizimining mobil va veb-versiyalari ishlab chiqilib, foydalanuvchilar o'z shaxsiy kabineti orqali barcha kommunal to'lov balansini ko'rish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Mobil versiyada shuningdek:

- boshqaruv organi haqidagi ma'lumotlar;
- majburiy badallar to'lov tarixi;
- mavjud muammolar yuzasidan murojaat yuborish;
- boshqaruv faoliyati yuzasidan hisobotlarni ko'rib chiqish;
- umumiy yig'ilish chaqirish tashabbusini ilgari surish imkoniyatlari yaratilgan.

Bundan tashqari, boshqaruv organlariga qulaylik yaratish maqsadida:

- billing tizimiga mulkdorlarning telefon raqamlarini kiritish amaliyoti yo'lga qo'yildi;
- qarzdor mulkdorlarga avtomatik SMS-xabarnomalar yuborish imkoniyati yaratildi.

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.11.2019 yildagi O'RQ-581-son <https://lex.uz/uz/docs/-4586282?ONDATE=14.03.2022>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.06.2021 yildagi PQ-5152-son <https://lex.uz/docs/-5464157>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.12.2024 yildagi 853-son <https://www.lex.uz/docs/-7276030>



“Mening Uyim” billing tizimi Payme, Click, Paynet kabi to'lov operatorlari hamda “Munis” kabi platformalar bilan integratsiya qilingan bo'lib, mulkdorlar o'z shaxsiy hisob raqamlari (litsevoy schyot) orqali to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

Tegishli tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv servis kompaniyalariga to'lanayotgan majburiy badallarning asosiy qismi joriy va mukammal ta'mirlash ishlariga yo'naltirilayotganligi sababli, 2019-yilda ayrim holatlarda kredit to'lovlarini to'liq so'ndirish imkoni cheklangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi ko'p qavatli uy-joylarning 69 foizi (ya'ni 30 mingta uylari) 1991-yilgacha qurilgan bo'lib, shundan 10 mingga yaqin uy-joy ta'mirtalab holatda ekanligi aniqlangan.

Ushbu holatni ijobiy hal etish maqsadida, hukumat qaroriga asosan boshqaruv tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida 1,3 trillion so'mlik kreditlar muddati qo'shimcha ravishda 2 yilga uzaytirildi.

Natijada, yig'ilgan majburiy badal mablag'lari asosida boshqaruv organlari tomonidan:

- ta'mirtalab uylarni joriy va mukammal ta'mirlash,
- kuz-qish mavsumini muammosiz o'tkazish,
- aholi uchun qulay va xavfsiz yashash sharoitlarini yaratishga erishilmoqda.

Yuqorida amalga oshirilgan chora-tadbirlar ko'p qavatli uylarda yashovchi aholining farovonligini oshirish hamda uy-joy boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida ko'p kvartirali uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini modernizatsiya qilish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish borasida qator muhim tashkiliy, moliyaviy va raqamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017–2021-yillar davomida uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarga jami 1,63 trillion so'mlik imtiyozli kredit mablag'lari ajratilgan bo'lib, ularning 78 foizdan ortig'i hali to'liq qaytarilmagan. Bu holat sektorning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun kreditlar bo'yicha monitoring tizimini kuchaytirish va qarzdorlikni kamaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatdagi ko'p kvartirali uylarning qariyb 69 foizi 1991-yilgacha qurilgan bo'lib, ularning muhim qismi joriy va mukammal ta'mirlashga muhtoj. Ushbu vaziyatni hisobga olgan holda, hukumat tomonidan “Mening uyim” billing tizimi joriy qilindi, subsidiya va imtiyozli kredit mexanizmlari kengaytirildi, kredit muddati uzaytirildi hamda raqamli boshqaruv tizimlariga integratsiya orqali uy-joy fondini samarali boshqarishga zamin yaratildi. Bu esa nafaqat boshqaruv organlari faoliyatini rag'batlantirishga, balki aholining turmush sifati va yashash xavfsizligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu islohotlarni yanada samarali davom ettirish uchun bir qator takomillashtirish choralari zarur: kredit mablag'larining o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash bo'yicha nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun subsidiya ajratish tartibini soddalashtirish hamda moslashtirilgan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, “Mening uyim” billing tizimining funktsionalligini barcha hududlarda to'liq joriy etish, boshqaruv organlari va mulkdorlar o'rtasidagi o'zaro aloqani raqamli platformalar orqali mustahkamlash hamda ta'mirtalab uylar uchun ajratiladigan kreditlar bo'yicha nol foizli yoki uzoq muddatli moliyaviy yondashuvlarni kengaytirish. Shu asosda ko'p kvartirali uylarda boshqaruv samaradorligi oshadi, aholining moliyaviy yuklamasi kamayadi va yashash uchun xavfsiz, qulay muhit yaratish imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahimov Q. E. Kommunal infratuzilma obyektlari menejmenti: darslik. – Toshkent: 2022.
2. Оперативное управление жилищно-коммунальным хозяйством: учебное пособие / Под ред. Е. И. Богомольного. – М.: Издательство «Проспект», 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrda “Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida”gi O'RQ–581-sonli Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ–5152-son qarori.
6. Rasmiy statistika portali: www.ru.worldstat.info
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi: www.stat.uz
8. BMT Aholi statistika portali: www.population.un.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
